




Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (2025- yil yanvar-dekabr)

2026- yil 1-yanvar holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 3 691 tani, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 100 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3 591 tani tashkil qildi. Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlari, chakana savdo ko'rsatkichlarida aks ettirilgan. Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 13 086,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 8,6 % ga o'sdi. Shundan, yirik korxonalar tovar aylanmasi 699,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 125,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 3 954,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,2 %), savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tovar aylanmasi 8 432,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 107,1 %) tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari

O'sish sur'ati, % da

Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar savdo aylanmasi




Ulushi, % da



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalar ulushi 5,3 % ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari 30,2 % ni, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar savdo aylanmasi 64,5 % ni tashkil qildi.


Chakana savdo aylanmasi – aholiga shaxsiy, oilaviy, maishiy va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan shu kabi foydalanish uchun sotilgan tovarlarning qiymati hisoblanadi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari dinamikasi (2025- yil yanvar-dekabr)



So'nggi 5 yillikda (2021-2025- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bu davrda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ga o'sgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi oylar kesimida (2025- yil yanvar-dekabr)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi:


Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri hissasiga to'g'ri keldi va 27,2 % ni tashkil etdi, Sh.rashidov tumani 12,6 % ni, Zomin tumani 12,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, Arnasoy tumani 2,6 %, Zafarobod tumani 2,0 % ni va Yangiobod tumani 1,2 % bilan eng kam ulushga ega bo'ldi.

**Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar,
kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining
hajmi va o'sish sur'atlari, % da
(2025- yil yanvar-dekabr)**

	<i>Jami mlrd so'm*</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Yirik korxonalar mlrd so'm*</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd so'm*</i>	<i>2024- yil yanvar- dekabr oyiga nisbatan, % da</i>
Jizzax viloyati	13 086,0	108,6	699,7	125,8	12 386,3	108,0
<i>shahar:</i>						
Jizzax sh	3 402,5	109,3	211,7	111,9	3 190,8	109,1
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	320,3	105,4	3,5	126,5	316,8	105,2
Baxmal	1 280,1	108,1	34,8	2,2 m	1 245,3	106,6
G'allaorol	1 257,7	109,0	16,2	52,2	1 241,5	110,6
Sharof Rashidov	1 572,0	109,5	18,4	128,8	1 553,6	109,3
Do'stlik	539,5	107,4	3,7	125,6	535,8	107,3
Zomin	1 514,5	109,2	262,0	133,5	1 252,5	105,1
Zarbdor	502,4	107,8	4,6	137,2	497,8	107,6
Zafarobod	247,7	108,5	2,7	119,1	245,0	108,4
Mirzacho'l	404,5	108,0	30,0	2,4 m	374,5	103,4
Paxtakor	705,3	108,8	2,9	129,7	702,4	108,7
Forish	609,5	109,1	18,4	2,4 m	591,1	107,3
Yangiobod	145,4	105,5	2,0	125,7	143,4	105,2

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.

Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	<i>Chakana savdo hajmi, mlrd so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % hisobida</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan % hisobida</i>
Jami	13 086,0	108,6	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
yirik korxonalar	699,7	125,8	5,3
kichik tadbirkorlik	3 954,0	109,2	30,2
Yakka tartibdagi tadbirkorlik	5 512,6	106,6	42,1
Uyushmagan savdo	2 919,7	108,1	22,4


**2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri
kelgan chakana tovar aylanmasi**

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>Hajmi, mlrd so‘m*</i>	<i>O‘sinh sur‘ati, % hisobida</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>O‘sinh sur‘ati, % hisobida</i>
Jizzax viloyati	13 086,0	108,6	8 430,6	106,5
<i>shahar:</i>				
Jizzax shahri	3 402,5	109,3	16 869,5	107,2
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	320,3	105,4	6 432,4	104,0
Baxmal	1 280,1	108,1	7 269,0	105,9
G‘allaorol	1 257,7	109,0	6 536,8	106,9
Sharof Rashidov	1 572,0	109,5	6 238,1	106,9
Do‘stlik	539,5	107,4	7 556,4	105,9
Zomin	1 514,5	109,2	8 142,2	106,6
Zarbdor	502,4	107,8	5 157,8	105,7
Zafarobod	247,7	108,5	4 510,9	106,9
Mirzacho‘l	404,5	108,0	7 134,1	106,5
Paxtakor	705,3	108,8	8 487,1	106,9
Forish	609,5	109,1	6 070,4	107,7
Yangiobod	145,4	105,5	4 800,7	104,4

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.

Viloyat chakana tovar aylanmasida aholi jon boshiga o‘sinh sur‘atilar Forish tumani (107,7 %) va Jizzax shahri (107,2 %) da qayd etildi.


2025- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari



Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida 9,2 % ga o'sish kuzatilgan bo'lsa, yirik korxonalar o'sish sur'ati 125,8 % ni tashkil qildi.



Viloyatning aksariyat hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Sh.Rashidov (109,5 %), Jizzax shahri (109,3 %), Zomin (109,2 %), Forish (109,1 %), G'allaorol (109,0 %) tumanlarida, yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Arnasoy tumanida (105,4 %) kuzatildi.



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati, % da

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalar tovar aylanmasining 2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 125,8 % ni va hajmi 699,7 mlrd so'mni tashkil qildi va umumiy savdo hajmining 5,3 % ulushiga ega bo'ldi.

Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Eng kam ulushga ega hududlar, % da

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob- kitoblarga ko'ra 3 954,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 9,2 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 30,2 % ni tashkil etdi.


Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Tumanlarning umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi (2025- yil yanvar-dekabr)



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi umumiy hajmida yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (217,7 mlrd so'm), Sharof Rashidov (124,4 mlrd so'm), Zomin (60,8 mlrd so'm) hamda G'allaorol (39,9 mlrd so'm) tumanlarida, eng past ko'rsatkich esa Yangiobod (5,0 mlrd so'm), Arnasoy (8,9 mlrd so'm) va Zafarobod (11,6 mlrd so'm) tumanlarida kuzatildi.

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, % da	2024- yil yanvar- dekabriga nisbatan o'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati *	7 155,5	100,0	113,7
<i>shahar:</i>			
Jizzax shahri	217,7	36,7	110,2
<i>tumanlar:</i>	-		
Arnasoy	8,9	1,5	108,9
Baxmal	34,6	5,8	109,1
G'allaorol	39,9	6,7	108,8
Sharof Rashidov	124,4	20,9	113,6
Do'stlik	20,0	3,4	110,5
Zomin	60,8	10,2	101,0
Zarbdor	19,6	3,3	111,8
Zafarobod	11,6	2,0	114,1
Mirzacho'l	13,4	2,3	110,6
Paxtakor	19,0	3,2	109,4
Forish	18,9	3,2	113,8
Yangiobod	5,0	0,8	112,2

Eng yuqori hajmga ega hududlar



Jizzax sh. – 217,7 mlrd so'm
Sh.Rashidov tumani - 124,4 mlrd so'm
Zomin tumani – 60,8 mlrd so'm

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 402,3 mlrd so‘mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 106,7 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 190,3 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 81,1 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo aylanmasi 6 212,0 mlrd so‘mga yetdi va o‘shish sur‘ati 107,7 % ni tashkil etib, umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 97,0 % ni tashkil qildi.

	<i>Hajmi, (mlrd so‘m)*</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabriga nisbatan % da</i>
Jizzax viloyati *	6 402,3	100,0	106,7
<i>shahar:</i>			
Jizzax shahri	3 159,6	53,3	94,2
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	146,8	2,5	116,4
Baxmal	308,1	5,2	101,1
G‘allaorol	295,2	5,0	131,6
Sharof Rashidov	845,8	14,3	115,9
Do‘stlik	124,9	2,1	101,7
Zomin	572,7	9,7	128,7
Zarbdor	243,9	4,1	2,2 m.
Zafarobod	23,7	0,4	111,8
Mirzacho‘l	42,8	0,7	106,6
Paxtakor	62,3	1,1	165,0
Forish	63,9	1,1	165,2
Yangiobod	29,6	0,5	138,7

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.*


Ulgurji tovar aylanmasida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlarini Zarbdor (2,2 m.), Forish (165,2 %) va Paxtakor (165,0 %) tumanlarida kuzatildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida yirik va kichik biznes korxonalarining ulgurji savdo aylanmasi

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 190,3 mlrd so‘mni (o‘shish sur‘ati 81,1 %), kichik biznes korxonalari va mikrofirmalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 212,0 mlrd so‘mni (o‘shish sur‘ati 107,7 %) tashkil etdi.

	<i>Jami mlrd so‘m</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, % da</i>	<i>Yirik korxonalar mlrd so‘m</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, % da</i>	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd so‘m</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr oyiga nisbatan, % da</i>
Jizzax viloyati	6 402,3	106,7	190,3	81,1	6 212,0	107,7
<i>shahar:</i>						
Jizzax	3 159,6	94,2	45,5	36,3	3 114,1	96,4
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	146,8	116,4	0,2	369,9	146,6	116,2
Baxmal	308,1	101,1	0,7	230,4	307,4	101,0
G‘allaorol	295,2	131,6	1,1	1,9	294,1	177,3
Sharof Rashidov	845,8	115,9	5,8	2 087,1	840,0	115,2
Do‘stlik	124,9	101,7	0,4	4,9	124,5	109,5
Zomin	572,7	128,7	119,5	528,2	453,2	107,3
Zarbdor	243,9	224,1	0,7	309,4	243,2	223,9
Zafarobod	23,7	111,8	0,2	75,5	23,5	112,2
Mirzacho‘l	42,8	106,6	0,2	83,0	42,6	106,7
Paxtakor	62,3	165,0	0,8	122,2	61,5	165,8
Forish	63,9	165,2	0,6	119,3	63,3	165,8
Yangiobod	29,6	138,7	0,2	158,2	29,4	138,6

Ulgurji savdo tovar aylanmasida hududlar ulushi, % da



Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida eng katta ulush Jizzax shahri (53,3 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, Sharof Rashidov (14,3 %) va Zomin (9,7 %) tumanlari nisbatan yuqori ulushga, Paxtakor (1,1 %), Mirzacho'l (0,7 %), Yangiobod (0,5 %) hamda Zafarobod (0,4 %) tumanlari esa eng kam ulushga ega bo'ldi.